

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ChIRChIQ DAVLAT PEDOGOGIKA UNIVERSITETI**

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYaLARI  
KAFEDRASI**

**Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalb etish, ulardan  
foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar  
bazasidan foydalanish bo'ychi**

**qo'llanma**



**Chirchiq 2023**

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

## **1. Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish huquqiy asoslari**

Tashqi beg'araz ko'makni jalg qilish va o'zlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, sohada olib borilayotgan ishlarning milliy manfaatlar va ustuvorliklar bilan uyg'unligini ta'minlash, grantlar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni tayyorlash, amalga oshirish, monitoring qilish va hisobga olishning yagona tizimini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasining donorlar bilan hamkorlik qilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 oktyabrdagi PF-5848-son Farmoni imzolandi. Ushbu farmonga binoan grantlardan samarali foydalanish kompleks tizimini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalg etish mexanizmlarini va donorlar bilan ishlashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 10 oktyabrdagi PF-5848-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi “Tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalg etish mexanizmlarini va donorlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qaror ishlab chiqildi.

## **2. Terminlarga izohlar**

**grant** — qonunchilik hujjatlariga zid bo'limgan faoliyatni amalga oshirish uchun maqsadli yo'naltirilgan yoki maqsadli bo'limgan asosda pul yoki natura shaklida donorlar tomonidan ko'rsatiladigan tashqi beg'araz ko'mak turi;

**axborot tizimi** — O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan joriy etiladigan va yuritiladigan «Tashqi beg'araz ko'mak loyihalarini elektron tarzda kelishish, monitoring qilish va hisobga olish» bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

**tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari** — tashqi beg'araz ko'mak beruvchi donorlar tomonidan taqdim etiladigan texnik ko'mak va grant, maqsadli beg'araz ko'mak mablag'lari, jumladan, pul va tovarlar (ishlar, xizmatlar);

**tashqi beg'araz ko'makni oluvchilar** — O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek faoliyatida foya olishni maqsad qilmagan yuridik va jismoniy shaxslar (donorlar va vakolatli organning boshqa kelishuvlari bundan mustasno);

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

**tashqi beg'araz ko'mak loyihasi** (keyingi o'rnlarda — loyiha) — donorlar tomonidan pul, tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatida taqdim qilinadigan tashqi beg'araz ko'mak loyihasi hisobiga qisman yoki to'la ta'minlangan, donorlar va tashqi beg'araz ko'mak oluvchilar bilan kelishilgan umumiylashtirish maqsadli tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

**tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalg qilish dasturi** — vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan istiqbolli va ustuvor loyihalalar hamda donorlarga tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari hisobiga moliyalashtirish uchun taklif etilayotgan loyihalarning yig'ma ro'yxatini o'z ichiga olgan hujjat;

**texnik ko'mak** — asbob-uskunalar va texnologiyalarni sotib olish, tajriba-konstrukturlik ishlarini amalga oshirish, ilmiy yoki boshqa tadqiqotlarni o'tkazish, xodimlarni davolash, o'qitish, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maslahat xizmatlari ko'rsatish hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa maqsadlar uchun pul yoki natura shaklida donorlar tomonidan ko'rsatiladigan tashqi beg'araz ko'mak turi;

**yagona reyestr** — vakolatli organ tomonidan doimiy ravishda shakllantiriladigan va uning rasmiy veb-saytida joylashtiriladigan amalga oshirilayotgan loyihalarning ro'yxati.

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalarni tayyorlash, amalga oshirish va monitoring qilish

Bosqi chlar	Subyektlar	Tadbirlar	Mudd atlar
1- bosqich	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Tashqi beg'araz ko'makni oluvchilarini donorlar mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi uchun taklif qilingan loyihalarni qabul qilish boshlanganligi to'g'risida xabardor qiladi.	Har yili 1 fevralga qadar
2- bosqich	Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilar	Donorlar tomonidan moliyalashtirish uchun taklif etilayotgan istiqbolli va ustuvor loyihalarning ro'yxatini, loyiha takliflari bilan birga, ularning ustuvorlik ko'rsatkichlarining tartib raqamini ko'rsatgan holda vakolatli organga taqdim etadi.  Loyiha takliflari tashqi beg'araz ko'mak oluvchilar tomonidan ishlab chiqiladi.	Har yili 1 martga qadar

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

<b>3-bosqich</b>	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Taqdim etilgan loyiha takliflar ko'rib chiqadi va taklif etilayotgan istiqbolli va ustuvor loyihalarning yig'ma ro'yxatini shakllantiradi.	Har yili 1 aprelga qadar
<b>4-bosqich</b>	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Shakllantirilgan yig'ma ro'yxat asosida tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalg qilish dasturini tasdiqlaydi va veb-saytiga joylashtiradi.	Har yili 15 aprelga qadar
<b>5-bosqich</b>	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari	Tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalg qilish dasturi asosida donorlar bilan tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalg qilish yuzasijan tegishli choralar ko'rasi.  Zarurat bo'lsa, tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari tashabbusi asosida dasturlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.	Doimi y asosda
<b>6-bosqich</b>	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi, Moliya vazirligi	Donorlar tomonidan ma'qullangan loyihalar asosida, ular bilan hamkorlik yo'nalishlarini, shu bilan birga loyihalarning barcha parametrlarini o'z ichiga olgan donor bilan hamkorlik dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.	Belgila ngan muddatlarda
<b>7-bosqich</b>	Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari, tegishli vazirlilik va idoralar, Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Donorlar bilan hamkorlik dasturlariga kiritilgan loyihalar uchun loyiha bitimlarini imzolaydi.	Zarura tga ko'ra
<b>8-bosqich</b>	Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari	Har bir loyiha tegishli loyiha hujjatlari va imzolangan loyiha bitimiga muvofiq amalga oshiradi.	Kelishuvlarga muvofiq
<b>9-bosqich</b>	Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari	Loyiha ijrochilari har bir donor tomonidan o'zining tartibiga muvofiq tanlanib olinadi.	Kelishuvlarga muvofiq
<b>10-bosqich</b>	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Amalga oshirilayotgan tashqi beg'araz ko'mak loyihalari hisobini yuritish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish maqsadida loyihalarni ro'yxatdan o'tkazadi.	Belgila ngan muddatlarda

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

11- bosqich	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Ro'yxatdan o'tkazilgan loyihalarning yagona reyestrini yuritadi, ularning ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritadi.	Doimiy asosda
12- bosqich	Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari	Tovar (ish, xizmat)larni tashqi beg'araz ko'mak hisobiga sotib olish donorlar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.	Kelishuvlarga muvofiq
13- bosqich	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Tovar (ish va xizmat)ning tashqi beg'araz ko'makka tegishliliqi bo'yicha tegishli xulosasi taqdim etadi.	Zarur hollarda
14- bosqich	Tashqi beg'araz ko'mak oluvchilari	O'zlashtirilgan tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari va amalga oshirilayotgan loyihalar to'g'risida ma'lumotni vakolatli organga va Moliya vazirligiga taqdim etadi.	Har chorakda
15- bosqich	Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi	Tashqi beg'araz ko'mak loyihalari amalga oshirilishini monitoring qiladi.	Har chorakda
16- bosqich	Moliya vazirligi	Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari maqsadli foydalanimishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish yuzasidan tizimli choralarni ko'radi.	Doimiy asosda

### Loyiha taklifi

(loyihanining nomi)

#### I. Ariza beruvchi tashkilot to'g'risida ma'lumotlar:

- nomlanishi va rekvizitlari;
- faoliyatining asosiy turi;
- ilgari amalga oshirilgan loyihalari.

#### II. Loyihaning maqsadi:

#### III. Loyihaning vazifalari:

#### IV. Kutilayotgan natijalar va loyihani amalga oshirish samarasi:

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

**V. Loyiha doirasida nazarda tutilayotgan tadbirlar:**

**VI. Loyihani amalga oshirish nazarda tutilayotgan muddat:**

**VII. Loyihaning umumiy summasi:**

**VIII. Berilayotgan grant summasi:**

**IX. Kutilayotgan xarajatlar toifasi:**

- a) joriy xarajatlar;
- b) asbob-uskunalar;
- v) o'qitish;
- g) maslahat xizmatlari;
- d) boshqa xarajatlar (nomi ko'rsatiladi).

**X. Bog'lanish uchun mas'ul shaxs:**

- a) F.I.O.:
- b) lavozimi;
- v) telefoni;
- g) elektron pochta manzili.

**XI. Loyiha amalga oshiriladigan hudud:**

**Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grant) hisobiga moliyalashtiriladigan istiqbolli va ustuvor loyihalarning**

**YIG'MA RO'YXATI**

/r	Loyiha nomi	Don or nomi	Grant (texnik ko'mak) mablag'lari qiymati  (ming. doll.)	Loyi ha maqsadi	Amalga oshirilgan ishlar
..					

**Xorij mablag'lari (grant)**

**Qanday grantlar mavjud?**

xozirgi kunda eng kup ommalashgan ikki xil hukumat grantlari va universitet tomonidan tashkil etilgan maxsus grantlari.

Tashqi beg’araz ko’mak mablag’lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo’yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma’lumotlar bazasidan foydalanish

## **1. hukumat grantlari –ushbu grantlari bshqalarig aqaraganda manafaatlirog’i hisoblanadi. bunda harajatlar to’liq moliyalashtiriladi.**

- O’qish shartnomasi to’lovlari to’lab beriladi
- safar, sug’urta va viza xarajatlari qoplаб beriladi
- oylik stipendiyalar bilan ta’minlanadi
- ba’zi xollarda bepul turar joylar, oziv ovqat bilan ham ta’minlanadi.

**Hukumat grantariga qo’yidagilarni misol keltirishmiz mumkin;**

- DAAD scolarship- Germaniya magistratura yoki PgD uchun o’qish yoki til o’rganish uchun maxsus grantlar
- Erasmus Mundus – barcha talabalar va o’qituvchilar uchun yevropada o’qish va malaka oshirish uchun moliyalashtiriladag grandlar dasturi
- Fulbright Foring Student Program- magsitratura bosqichi AQSh universitetlarida davom ettirmoqchi bo’lgan o’zbekistonlik talabalar uchun.
- UGRAD – bakalavr bosqichida o’qiydigan talabalar uchun AQShda bir smestrlik o’quv almashinuv dasturi.
- Erasmus Plus- Yevropa Ittifoqi dasturi

Erasmus Plus – Yevropa Ittifoqi dasturi bo‘lib, u ta’lim tizimlari, yoshlar siyosati va sportni modernizatsiya qilish va rivojlantirishga qaratilgan.

Bu Yevropa davlatlari va butun dunyo bo‘ylab hamkor davlatlar o‘rtasida ushbu sohalarning barchasida hamkorlik qilish uchun moliyaviy imkoniyatlar yaratadi.

Dastur o’z maqsadlarini quyidagicha belgilaydi:

boshqa Yevropa davlatlarida o’qish orqali talabalarni ta’lim, til va madaniy jihatdan rivojlantirish

muassasalar o’rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va qabul qiluvchi muassasalarining ta’lim muhitini boyitish

yoshlarning xalqaro tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali bo‘lajak mutaxassislar bo‘lib kamol topishiga ko‘maklashish.

Birinchi talabalar dasturni 1987 yilda boshlagan. O’shandan beri Erasmus Plus uch milliondan ortiq grant ajratdi.

2022-2027 yillar uchun Erasmus Plus dasturi haqida bir necha faktlar:

dasturning taxminiy byudjeti 26 milliard yevrodan ortiq

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

ijtimoiy inklyuziya, ekologiya va raqamlashtirish sohalariga katta e'tibor qaratilmoqda

dasturning ayrim loyihalari 30 yildan ortiq davom etmoqda.

Erasmus Plus talabalar uchun bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi.

1. Xalqaro kredit mobilligi - uch oydan 12 oygacha davom etadigan Yevropada o'qitish yoki stajirovka.

Shartlar:

oylik stipendiya - mezbon mamlakatga qarab 800-900 evro, shuningdek sayohat xarajatlarini qoplash

Harakatda bakalavriat, bakalavriat va doktorantlar qatnashishi mumkin xorijiy oliy o'quv yurtida o'qish muddati jo'natuvchi universitetdagi mutaxassislik va ta'lim dasturiga mos kelishi kerak.

harakatlanish davri boshlanishidan oldin siz o'zlashtirishingiz kerak bo'lgan fanlar / o'quv faoliyati turlarini ko'rsatadigan shartnomasi tuziladi.

2. Erasmus Mundus Joint Master Degrees xalqaro ta'lim dasturi bo'lib, 60, 90 yoki 120 ECTS kreditiga mo'ljallangan, 12 oydan 24 oygacha davom etadigan oliy ta'lim muassasalari xalqaro konsorsiumi tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. Magistr talabasi turli mamlakatlardagi kamida ikkita universitetda o'qiydi.

Shartlar:

Dasturni muvaffaqiyatli tamomlaganingizdan so'ng siz ikki yoki undan ortiq universitetning qo'shma diplomiga ega bo'lasiz.

EMJMD stipendiyasi ishtirok etish uchun barcha xarajatlarni, jumladan o'quv to'lovlarini, kutubxona va laboratoriya xarajatlarini, sug'urta, sayohat va turar joy xarajatlarini va o'qishning butun muddati uchun oylik nafaqani qoplaydi.

butun dunyo bo'ylab talabalar qabul qilish uchun ariza topshirishlari mumkin oliy ma'lumotga ega bo'lishi yoki milliy qonunchilik va amaliyotga muvofiq ekvivalent ta'lim darajasini ko'rsatishi kerak.

Erasmus stipendiyasiga ariza topshirish uchun talablar va hujjatlar to'plami:

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

IELTS yoki TOEFL sertifikati. Ba'zi dasturlar Duolingo ingliz tilini bilish testi natijalarini qabul qiladi

tavsiya xatlari, odatda ikkita xat talab qilinadi

yashash joyi to'g'risidagi guvohnoma – bu hujjat so'nggi besh yil ichida Yevropada bir yil yoki undan ko'proq yashamaganligingizni va advokat tomonidan tasdiqlanishini kafolatlaydi.

oldingi diplomlar va transkriptlar

motivatsiya xati - uzunligi va matni dasturga qarab o'zgaradi

o'quv dasturi yoki tadqiqot loyihasini ishlab chiqish

Tajriba talab qilinmaydi, yosh cheklovleri yo'q.



### **Grantlar yutish uchun nimaga ahamiyat berish kerak?**

- CV – tarjimayi xol.
- Motivasion xat- nega shu grantga topshirayotganligingiz xaqidagi ikki sahfalik insho.
- Tavsiyanoma universitet yoki ish joyidan nomzodni ijobiy tomonlari haqida ma'lumot beruvchi ma'lumotnoma.
- Diplomlar/boho-nomzodning akademik ko'rsatkichi
- Til sertifikati- IELTS kamida 6.0. TOEFL iBT 90 `yoki boshqa yekvivalent daraja

**2.** Internat tarmog'ida grant dasturlaridan foydalanish bo'yicha veb saytlar

#### **1. Grantlar.uz**

– Grant dasturlari orqali talabalarga mashriqdan mag'ribgacha bepul ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishda yordam beradi;

– Ilmiy konferensiyalar, tanlovlari, kurslar va hatto ish, amaliyot va volontyorlik o'rnlari haqida sizni xabardor qiladi;

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

– Xorijdan o'qish topish, hujjatlarni tayyorlash va topshirish, grantlar topish va ularga hujjat topshirish hamda tanlov bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tish sir-sinoatlari haqida xorijda ta'lim olgan mutaxassislar maslahatini chop etadi.

– Ma'lumotlarning barchasi, manba ko'rsatilgan holda, sof o'zbek tilida yoziladi. Ularni xorijda o'z bilimi va kuchi bilan hamda grant asosida o'qigan o'zbekistonlik mutaxassislar tayyorlaydi.

### Loyiha maqsadi:

– Tirishqoq va iqtidorli, ammo moliyaviy imkoniyati cheklangan yoshlarimizning xorijda bepul yoki grant asosida ta'lim olishiga ko'maklashish.

– Shu orqali vatandoshlarimizning yuqori sifatli bilim olib, malakali mutaxassislar bo'lib yetishishiga hamda kelajakda yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishiga erishish.

Loyiha haqida   Grant taklif qilish   Hamkorlar   Reklama   Premium obuna   FAQ

f   t   y   o   Kirish

**Grantlar.uz**  
Butun dunyodan va barcha sohalarda

GRANTLAR ▾   TANLOVLAR   ISHLAR ▾   KURSLAR ▾   BLOG ▾

**Qidirish**

Ad was hidden  
We'll use your responses to select right ads for you

**So'nggi grantlar**

**Immerse Education Essay Competition**

Honjo International Scholarship Foundation: Yaponiyada bakalavrviyatdan keyingi bosqichlarda o'qish uchun oyiga 1600 dollargacha stipendiya!  
31 kun | Yaponiya | Barcha soha

UNESCO/Poland Co-Sponsored Fellowships in Engineering: Polshada to'liq moliyalashtiriluvchi 6 oylik amaliyot dasturi  
29 kun | Polsha | Barcha soha

Innovatsiya vazirligi tomonidan startaplar tanlovi: istiqbollari loyihamlar 1 mlrd so'ngacha moliyalashtiriladi!  
17 kun | O'zbekiston | Axborot texnologiyalari

Rassomlar va rasm chizishga

**Iqtibos**


Birovni o'rgatishning uchun, o'zing o'r ganishing uchun lozim bo'lganidan ko'ra ham ko'proq aql kerak.  
- M.Monten

**Eng ko'p o'qilgan**

Deutschland Scholarship: Germaniyada bakalavrviyat yoki magistraturada o'qish uchun oyiga 300 yevro stipendiya; joy - 150 ta!  
Barcha soha | 163952

Schwarzman Scholars: Xitoya magistraturada o'qish uchun to'liq grant, bepul turar joy, aviachipta va stipendiya!  
Biznesni boshqarish | 162259


Yaponiya: Magistratura va doktorantura bosqichida o'qish uchun MEXT to'liq orantina hujiatlar oahul



1-rasm Sayt interfeysi

Saytdan foydalanish uchun a'zo bo'lish

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish



A'zo bo'lish

Ismingiz  Familiyangiz

+998

email@manzil.uz

Login

Parol

Parolni tasdiqlang

Men Foydalanish bitimi (Ommaviy oferta) shartlarini qabul qilaman.


**SAYTGA A'ZO BO'LISH**



Secured by OneAll Social Login



2-rasm



Kirish

Email manzilingiz


Parol

Meni eslab qol

**LOGIN**



Secured by OneAll Social Login



Войти через Telegram

Parolni unutdingizmi?

Hali a'zo emasmisiz? Tizimga a'zo bo'ling

3-rasm

### Grantlar bo'limi

**GRANTLAR**  **TANLOVLAR**

- Bakalavr
- Magistratura
- Doktorantura
- Postdoktor
- Oromgohlar Va Maktablar
- Tashkilotlar Uchun
- Konferensiyalar
- Har Xil

### Bakalavr talabalar uchun

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalb etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

The screenshot shows the Grantlar.UZ website's search results page. The search term 'Bakalavr' is highlighted in a red box. Below it, a list of study programs includes 'Magistratura', 'Doktorantura', 'Postdoktor', 'Oromogholar Va Maktablar', 'Tashkilotlar Uchun', 'Konferensiylar', and 'Har Xil'. A sidebar on the right contains a quote from Coco Chanel: 'Vaqtingizni devorga urib, undan eshik paydo qilishga sarflamang'.

#### 4-rasm

#### Bo'lim: Bakalavr



Deutschland Scholarship: Germaniyada bakalavriat yoki magistraturada o'qish uchun oyiga 300 yevro stipendiya; joy – 150 ta!

24.03.2023 | 163954

Germanyaning Mannheim universiteti (**University of Mannheim**) 2023-yilning kuzidan boshlab bakalavriat va magistratura bosqichida o'qishni xohlovchilar uchun *Deutschland Scholarship* grant dasturini taklif etmoqda. Ushbu ...

[Davomini o'qish >](#)



Vistula University Merit Scholarship: Polshada bakalavriat va magistratura kurslari uchun 100% lik grant!

12.03.2023 | 10516

Polshaning Varshava shahrida joylashgan Vistula universiteti bakalavriat va magistratura bosqichida o'qishni xohlovchi xorijlik talabalarga *Vistula University Merit Scholarship* dasturini taklif etmoqda. Ushbu grant **2023-yilning oktyabr** oyidan yoki **2024-yilning mart** oyidan boshlanadigan o'qish uchun jami **70 nafar**

[Davomini o'qish >](#)



JACAF FOUNDATION  
THE NIPPON FOUNDATION  
EURASIA SCHOLARSHIP  
PROGRAM



JACAF: Bakalavriat talabalari uchun 2 yil davomida 110 dollar oylik stipendiya olish imkoniyati!

07.03.2023 | 21149

Iqtidorli va yetakchilik sifatlariga ega talabalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan **JACAF The Nippon Foundation Scholarship Program** stipendiya dasturiga arizalar qabul qilinmoqda. Bu stipendiya ijtimoiy fanlar, kompyuter muhandisligi, IT muhandisligi va mahalliy qishloq xo'jaligi rivojlanishi ...

[Davomini o'qish >](#)

#### 5-rasm

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

## Bo'lim: Magistratura



Honjo International Scholarship Foundation: Yaponiyada bakalavriatdan keyingi bosqichlarda o'qish uchun oyiga 1600 dollargacha stipendiya!

29.03.2023 | 5553

Yaponiyaning Honjo International Scholarship Foundation jamg'armasi Yaponiyada magistratura yoki doktorantura (PhD) bosqichida tahsil olishni xohlovchi xorijiy talabalarga turli miqdordagi stipendiyalarni taqdim etadi. Stipendiyalar ham kuzgi, ham bahorgi semestrdan boshlanadigan o'qishlar uchun beriladi.

Navbatdagi qabul 2023-yil kuzgi semestrdan boshlanadigan ...

[Davomini o'qish ➤](#)



Deutschland Scholarship: Germaniyada bakalavriat yoki magistraturada o'qish uchun oyiga 300 yevro stipendiya; joy – 150 ta!

24.03.2023 | 163954

Germanianing Mannheim universiteti ([University of Mannheim](#)) 2023-yilning kuzidan boshlab bakalavriat va magistratura bosqichida o'qishni xohlovchilar uchun *Deutschland Scholarship* grant dasturini taklif etmoqda. Ushbu ...

[Davomini o'qish ➤](#)



Fulbright: AQShda magistraturada o'qish uchun to'liq grant, oylik stipendiya va borib-kelish uchun aviachipta!

23.03.2023 | 28113

**Fulbright Foreign Student Program** grant dasturi magistratura bosqichini AQSh oliyogolarida o'qimoqchi bo'lgan **O'zbekistonlik** yoshlarni o'zining navbatdagi grant dasturida qatnashish ...

[Davomini o'qish ➤](#)

6-rasm

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalb etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

## Grant taklif qilish

Biror grant yoki tanlovni Grantlar.uz o'quvchilari bilan bo'lishishni istaysizmi? Unda quyidagi shaklni to'ldirish orqali O'zbekiston yoshlarini ham Sizdagi ma'lumot bilan ta'minlang. Shuningdek, biror grant yoki imkoniyat yuzasidan info@grantlar.uz email manziliga ham murojaat qilishingiz ham mumkin.

Shuni e'tiborga olish kerakki, Siz tominingizdan kiritilayotgan ma'lumot to'g'ri bo'lishi hamda davlat, jamoat yoki fuqarolarning sirlarini oshkor qilmaydigan bo'lishi lozim. Berilgan ma'lumotning to'g'riliqi, yaroqliligi va ishonchlilikiga ma'lumotni beruvchi to'liq javobgar hisoblanadi.

Bundan tashqari, yangi ma'lumot joylaganda Grantlar.uz tomonidan matn sayt talablariga mos qilib biroz o'zgartirilishi, muallif tomonidan rasm qo'yilmaganda matnga mos rasm tanlab, qo'yilishi mumkin. Shuningdek, muallif ma'lumotni kiritganda ushbu ma'lumot vebsayt va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilishiga rozilik bergan hisoblanadi.

### Grant taklif qilish formasi

<b>Maqola nomi</b>	Grant e'lon qilinadigan maqola sarlavhasi
<b>Qayerda</b>	-- tanlang -- Grant e'lon qilingan davlatni tanlang
<b>Bo'lim</b>	-- tanlang -- Ushbu grant saytimizning qaysi bo'limiga mos?
<b>Kim uchun</b>	Grantga kimlar xujjat topshirishi mumkin?
<b>Ariza muhlati</b>	Sanani tanlang Grant uchun arizani qachonga qadar topshirish mumkin?
<b>Umumiyligi ma'lumot</b>	Iltimos, grant haqida 100-150 ta so'zdan iborat batafsil ma'lumot yozing.

2. Dunyo bo'ylab grantlar va imkoniyatlар beruvchi grantgo.uz sayti

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalb etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

The screenshot shows the homepage of the GrantGO website. At the top, there is a search bar with the placeholder "Qanday grant qidiriyapsiz?" and a dropdown menu set to "Mamlakat". To the right of the search bar are two buttons: "Qidirish" (in red) and "Kirish". Above the search bar, there are icons for "Sevimililar" (favourites) and "Kirish" (login). Below the search bar, there is a section titled "Kategoriylar" (Categories) with eight items arranged in a grid:

- Grantlar va stipendiyalar** (highlighted with a blue border)
- Almashinuv dasturlari
- Yozgi va qishki maktablar
- Sammit va konferensiyalar
- Tanlovlari
- Onlayn va offlaysn kurslar
- Amaliyotlar
- Tadqiqot va Professional rivojlanish
- Volontyorklik
- Hamdo'stlik dasturlari

## 7-rasm Sayt interfeysi

The screenshot shows a list of international scholarship opportunities on the GrantGO website. On the left, there is a sidebar with a "Sohalar" section containing a list of academic fields:

- Amaliy fanlar va kasblar
- Biznes boshqaruvi
- Kompyuter fanlari va IT
- Muhandislik va texnologiya
- Atrof-muhit va Geologiya fanlari
- Gumanitar fanlari
- Huquqshunoslik va qonunchilik
- Tabiiy fanlar va matematika
- Ijtimoiy fanlar
- Qishloq va o'rmon xo'jaligi
- San'at, dizayn va arxitektura
- Ta'lim va tarbiya
- Tibbiyot va sog'liqni saqlash
- Jurnalistikva OAV
- Mehmonxona biznesi, hordiq va sport

Below this sidebar, there is a list of links:

- > Qaysi bosqich uchun?
- > Mamlakat
- > Moliyalashtirish turi
- > Kim uchun
- > Dastur tilli
- > Jins

The main content area is titled "Grantlar va stipendiyalar" and shows three scholarship opportunities:

- Koreyada magistratura va doktorantura bosqichini to'liq moliyalashtirilgan holda o'qish uchun Global Korea Scholarshi...** (Muddati yaqinlari) 14 soat 35 daqiqa
- Polsha davlatida magistraturada o'qish uchun Polsha hukumi...** (Moliyalashtirilgan holda o'qish uchun) 1 kun 9 soat
- Bakalavr talabalari uchun xalqaro JACAFA stipendiyasi** (Yaponiya) 2 hafta 1 kun

## 8-rasm

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalb etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

## Grantlar va stipendiyalar

Qidiruv natijasi: 60 ta

Muddati yaqinlari Ko'rilgan soni

Filtr: Kompyuter fanlari va IT x Barchasini o'chirish



**Polsha davlatida magistraturada o'qish uchun Polsha hukumati tomonidan to'liq moliyalashtiriluvchi grant dasturi**



⌚ 1 kun 9 soat

POLSHA

Magistr

Tabiiy fanlar va matematika, Atrof-muhit va Geologiya fanlari, Muhandislik va texnologiya, +1

\$ To'liq moliyalashtiriladi



**Janubiy Koreyaning eng nufuzli universiteti — KAISTdan bakalavr bosqichini to'la moliyalashtirilgan holda o'qish uchu...**



⌚ 1 oy 3 hafta

KOREYA

Bakalavr

Tabiiy fanlar va matematika, Muhandislik va texnologiya, Kompyuter fanlari va IT, +1

\$ To'liq moliyalashtiriladi



**35 yoshdan kichik barcha tadqiqotchilar uchun YUNESKOdan "Ipak yo'li yoshlari tadqiqotlari granti" tanlovi**



⌚ 2 oy 14 soat

XITOY

### 9-rasm. Kompyuter fanlari va IT.

Foydalanish.

Umumiylar ma'lumotlar

Janubiy Koreya hukumati xalqaro talabalar uchun ilm fan va muhandislik sohalar bo'yicha magistratura va doktorantura bosqichini to'liq moliyalashtirilgan holda o'qish imkoniyatini beruvchi Global Korea Scholarship: University Track dasturini e'lon qiladi.

Nomzodlar bunda Janubiy Koreya universitetlariga to'g'ridan to'g'ri ariza topshirishlari lozim. Universitetlar bilan bu yerda yoki bu yerda tanishish mumkin. Dasturga qabul qilingan talabalar Koreyadagi eng nufuzli oliygochlarda hech

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

qanday to'lovatarsiz eng so'nggi ta'llim berish usullari orqali o'qish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Dasturga topshirayotganlar koreys tilini bilishmasa, 1 yillik til kursida o'qib TOPIC 5 olishlari so'raladi. Til kursi to'lovleri ham GKS tomonidan to'liq moliyalashtiriladi.

Dastur va uning to'liq imkoniyatlari haqida bu yerda batafsil bilib olish mumkin.

### **Maqbullik shartlari**

Nomzodlar va ularning ota-onasi Koreya fuqarosi bo'lmasligi kerak;

Magistratura uchun nomzodning yoshi 40 yoshdan kichik bo'lishi so'raladi;

Bakalavrni tamomlagan (28-fevral, 2023-yilgacha diplom olishga ulgurgan) nomzodlargina ariza bera oladi va oxirgi o'qigan ta'llim muassasasida olgan baholar ko'rsatkichi 80% dan yuqori bo'lishi (yoki nozmod top 20% talabalar qatorida bo'lishi) kerak;

Til bilish talabi: IELTS 6,5, TOEFL iBT 80 va h.k.

Nomzodlar chet elda uzoq vaqt yashash uchun ruhan va jismonan sog'lom bo'lishi kerak;

Ilgari Koreyada bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichini o'qigan talabalar bu safar ariza topshira olmaydilar;

Faqat bitta holatda, ya'ni oldingi yoki hozirgi o'qishi davomida 90% dan yuqori bahoga o'qigan va TOPIC 5 yoki undan yuqori darajaga erishgan nomzodlar qayta ariza yuborishlari mumkin.

Dastur talablari haqida bu yerda batafsil tanishib chiqish mumkin.

### **Foydali tomonlari**

Dastur davomida kontrakt puli to'liq qoplanadi, yashash uchun oylik stipendiya beriladi, tibbiy sug'urta qilinadi, havo yo'li chiptalari olib beriladi(faqat birinchi safar uchun)p;

Tadqiqotchilarni qo'llab quvvatlash uchun — har semestr 210,000 — 240,000 KRW beriladi;

Dissertatsiyalarni chop etish uchun — 500,000 — 800,000 KRW beriladi;

Tashqi beg’araz ko’mak mablag’lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo’yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma’lumotlar bazasidan foydalanish

Grant dasturini tugatgan nomzodlarga bir martalik 100,000 KRW miqdorida mukofot puli beriladi.

Global Korea Scholarship dasturining imtiyozlari haqida bu yerda batafsil tanishish mumkin.

Hujjat topshirish

**Nomzodlar ikki xil usulda ariza yuborishlari mumkin:**

University Track (ya’ni universitetlarni o‘ziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish orqali) — bunda faqat bitta universitet va yo‘nalish tanlash mumkin;

Embassy Track (nomzod o‘zi yashaydigan davlatidagi Koreya Elchixonasiga hujjatlarini topshirishi mumkin)- bunda 3 ta universitet va 3 ta yo‘nalish tanlash mumkin.

Hozirda University Track bo‘yicha qabul ochilgan bo‘lib arizalar qabul qilinmoqda:

Ushbu sayt orqali kirib, qabul davom etayotgan universitetni tanlab shartlari va qabul qilish jarayonlari haqida batafsil bilib olish mumkin;

Masalan, Kyungbok Universityni tanlab mana bu yerga bosilsa, bu universitetga qaysi yo‘nalishga qanday darajada topshirish mumkinligi va so‘raladigan hujjatlar ekranda namoyon bo‘ladi, eng quyi qismida tanlangan universitetni kontakt ma’lumotlari saqlanadi. Qo‘srimcha savollar yuzasidan email orqali murojaat qilish mumkin.

**Asosiy so‘raladigan hujjatlar:**

Ariza shaklini to‘ldirish va imzo bilan tasdiqlash (Application form);

Personal Statement;

Study Plan (dastur davomida qanday o‘qishi haqida reja);

Bitta tavsiyanoma (Recommendation Letter);

Sog‘ligi qoniqarli ekanini tasdiqlovchi hujjat (Personal Medical Assessment);

Pasport;

O‘qishini tamomlagani haqida ma’lumot;

Baholar transkripti;

Tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari (grantlar)ni jalg etish, ulardan foydalanish bo'yicha elektron reyestr va unga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasidan foydalanish

Yoshini, Koreya fuqarosi emasligini tasdiqllovchi hujjatlar;

Til sertifikatlari IELTS, TOPIC ular ham yuklanadi (TOPIC eng kamida 3 bo'lishi kerak).

Hujjatlarning barchasi, agar ingliz tilida bo'lmasa, ingliz yoki koreys tiliga rasmiy tarjima qilinib apostil qilinishi shart! Barcha hujjatlarning (IELTSdan tashqari) original nusxasini yuborish kerak.

Hujjatlarni belgilangan muddatgacha quyidagi manzilga jo'natish kerak:

Section of Graduate Admissions, GIST

Unit 323, GIST College A, 123 Cheomdangwagiro, Bukgu, Gwangju, 61005,  
South Korea

Hujjat topshirish va saralash jarayoni haqida bu yerda batafsil o'qib chiqish mumkin.